




**New Day in Medicine**  
**Новый День в Медицине**

**NDM**



# TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



**AVICENNA-MED.UZ**



ISSN 2181-712X.  
EISSN 2181-2187

**5 (91) 2026**

**Сопредседатели редакционной коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,  
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:  
М.И. АБДУЛЛАЕВ  
А.А. АБДУМАЖИДОВ  
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ  
Л.М. АБДУЛЛАЕВА  
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ  
М.А. АБДУЛЛАЕВА  
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ  
Б.З. АБДУСАМАТОВ  
У.О. АБИДОВ  
М.М. АКБАРОВ  
Х.А. АКИЛОВ  
М.М. АЛИЕВ  
С.Ж. АМИНОВ  
Ш.Э. АМОИВ  
Ш.М. АХМЕДОВ  
Ю.М. АХМЕДОВ  
С.М. АХМЕДОВА  
Т.А. АСКАРОВ  
М.А. АРТИКОВА  
Д.Т. АШУРОВА  
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)  
Е.А. БЕРДИЕВ  
Б.Т. БУЗРУКОВ  
Р.К. ДАДАБАЕВА  
М.Н. ДАМИНОВА  
К.А. ДЕХКОНОВ  
Э.С. ДЖУМАБАЕВ  
А.А. ДЖАЛИЛОВ  
Н.Н. ЗОЛотова  
А.Ш. ИНОЯТОВ  
С. ИНДАМИНОВ  
А.И. ИСКАНДАРОВА  
А.С. ИЛЪЯСОВ  
Э.Э. КОБИЛОВ  
А.М. МАННАНОВ  
Д.М. МУСАЕВА  
Т.С. МУСАЕВ  
М.Р. МИРЗОЕВА  
Ф.Г. НАЗИРОВ  
Н.А. НУРАЛИЕВА  
Ф.С. ОРИПОВ  
Б.Т. РАХИМОВ  
Х.А. РАСУЛОВ  
Ш.И. РУЗИЕВ  
С.А. РУЗИБОВЕВ  
С.А. ГАФФОРОВ  
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)  
Ж.Б. САТТАРОВ  
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)  
И.А. САТИВАЛДИЕВА  
Ш.Т. САЛИМОВ  
Д.И. ТУКСАНОВА  
М.М. ТАДЖИЕВ  
А.Ж. ХАМРАЕВ  
Б.Б. ХАСАНОВ  
Д.А. ХАСАНОВА  
Б.З. ХАМДАМОВ  
Э.Б. ХАККУЛОВ  
Г.С. ХОДЖИЕВА  
А.М. ШАМСИЕВ  
А.К. ШАДМАНОВ  
Н.Ж. ЭРМАТОВ  
Б.Б. ЕРГАШЕВ  
Н.Ш. ЕРГАШЕВ  
И.Р. ЮЛДАШЕВ  
Д.Х. ЮЛДАШЕВА  
А.С. ЮСУПОВ  
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ  
М.Ш. ХАКИМОВ  
Д.О. ИВАНОВ (Россия)  
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)  
DONG JINCHENG (Китай)  
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)  
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)  
В.А. МИТИШ (Россия)  
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)  
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)  
А.А. ПОТАПОВ (Россия)  
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)  
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)  
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)  
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)  
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)  
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН  
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ  
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал  
Научно-реферативный,  
духовно-просветительский журнал*

**УЧРЕДИТЕЛИ:**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ  
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ  
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский  
исследовательский центр хирургии имени  
А.В. Вишневского является генеральным  
научно-практическим  
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных  
изданий, рецензируемых Высшей  
Аттестационной Комиссией  
Республики Узбекистан  
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

**РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:**

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)  
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)  
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)  
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)  
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)  
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)  
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)  
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)  
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)  
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)  
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

**5 (91)**

**2026**  
*Май*

www.bsmi.uz  
https://newdaymedicine.com  
E: ndmuz@mail.ru  
Тел: +99890 8061882

Received: 20.04.2026, Accepted: 06.05.2026, Published: 10.05.2026

UDK 616.31-002:578.827.11

## ODAM PAPILLOMAVIRUSI INFEKSIYASIDA OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ QAVATI KASALLIKLARINING KLINIK KO'RINISHLARI

Xamrayeva Nilufar Xamzayevna <https://orcid.org/0009-0002-5298-7903>

Turayeva Feruza Abdurashidovna e-mail: [turayeva.firuz@bsmi.uz](mailto:turayeva.firuz@bsmi.uz)

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro sh. A. Navoiy kochasi 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: [info@bsmi.uz](mailto:info@bsmi.uz)

### ✓ Rezyume

*Mazkur maqolada odam papillomavirusi (OPV) infeksiyasi bilan bog'liq holda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida uchraydigan kasalliklarning asosiy klinik ko'rinishlari yoritilgan. Tadqiqot davomida papillomatoz o'sishlar, verrukoz o'zgarishlar, leykoplakiya va epitelial displaziya kabi holatlarning klinik belgilariga alohida e'tibor qaratildi. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining erta aniqlanishi va to'g'ri klinik baholanishi stomatologik amaliyotda muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab berildi.*

*Kalit so'zlar: odam papillomavirusi, og'iz bo'shlig'i, shilliq qavat, klinik ko'rinishlar, papiloma.*

## CLINICAL MANIFESTATIONS OF DISEASES OF THE ORAL MUCOSA IN HUMAN PAPILLOMAVIRUS INFECTION

Khamrayeva Nilufar Xamzayevna <https://orcid.org/0009-0002-5298-7903>

Turayeva Feruza Abdurashidovna e-mail: [turayeva.firuz@bsmi.uz](mailto:turayeva.firuz@bsmi.uz)

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sino, Uzbekistan, Bukhara city. A. Navoi street 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: [info@bsmi.uz](mailto:info@bsmi.uz)

### ✓ Resume

*This article describes the main clinical manifestations of oral mucosal diseases associated with human papillomavirus (HPV) infection. Particular attention is paid to papillomatous growths, verrucous changes, leukoplakia, and epithelial dysplasia. Early diagnosis and correct clinical assessment of oral mucosal lesions play an important role in dental practice.*

*Key words: human papillomavirus, oral cavity, mucosa, clinical manifestations, papilloma.*

## КЛИНИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ ЗАБОЛЕВАНИЙ СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ ПОЛОСТИ РТА ПРИ ИНФЕКЦИИ ВИРУСОМ ПАПИЛЛОМЫ ЧЕЛОВЕКА

Хамраева Нилуфар Хамзаевна <https://orcid.org/0009-0002-5298-7903>

Тураева Феруза Абдурашидовна e-mail: [turayeva.firuz@bsmi.uz](mailto:turayeva.firuz@bsmi.uz)

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сино, Узбекистан, г.Бухара. Улица А. Навои, 1 Тел.: +998 (65) 223-00-50 e-mail: [info@bsmi.uz](mailto:info@bsmi.uz)

### ✓ Резюме

*В данной статье описаны основные клинические проявления заболеваний слизистой оболочки полости рта, связанных с инфекцией вирусом папилломы человека (ВПЧ). Особое внимание уделено папилломатозным образованиям, бородавчатым изменениям, лейкоплакии и эпителиальной дисплазии. Ранняя диагностика и правильная клиническая оценка поражений слизистой оболочки полости рта играют важную роль в стоматологической практике.*

*Ключевые слова: вирус папилломы человека, полость рта, слизистая оболочка, клинические проявления, папиллома.*

## Dolzarbligi

Odam papillomavirusi (OPV) infeksiyasi hozirgi kunda keng tarqalgan virusli kasalliklardan biri bo'lib, u nafaqat anogenital sohani, balki og'iz bo'shlig'i shilliq qavatini ham zararlashi mumkin. Turli epidemiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, OPV bilan zararlanish ko'rsatkichlari yil sayin ortib bormoqda. Virusning ayrim genotiplari yuqori onkogen xavfga ega bo'lib, ular og'iz bo'shlig'ida kechuvchi xavfli patologik jarayonlar bilan bog'liq hisoblanadi [3,4].

Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati OPV infeksiyasi uchun qulay muhit bo'lib, mikrotravmalar, yallig'lanish jarayonlari, gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik hamda immun tizimining zaiflashuvi virusning faollashishiga olib keladi[1,2]. OPV bilan bog'liq klinik o'zgarishlar ko'pincha og'riqsiz kechadi, bu esa bemorlarning shifokorga kech murojaat qilishiga sabab bo'ladi [4].

Stomatologik amaliyotda OPV infeksiyasi bilan bog'liq og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarini erta aniqlash muhim ahamiyatga ega. Chunki ayrim klinik shakllar vaqt o'tishi bilan epitelial displaziya va malign jarayonlarga olib kelishi mumkin [1,3,5]. Shu sababli klinik ko'rinishlarni chuqur o'rganish va ularni to'g'ri baholash stomatolog shifokorlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir [2].

Mazkur mavzuni ilmiy jihatdan o'rganish, OPV infeksiyasiga xos bo'lgan og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining klinik belgilarini tizimlashtirish hamda stomatologik amaliyot uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqish katta ahamiyat kasb etadi [1,2,5].

**Tadqiqotning maqsadi:** Odam papillomavirusi infeksiyasida og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining asosiy klinik ko'rinishlarini aniqlash, ularni tizimlashtirish va stomatologik amaliyotda diagnostik ahamiyatini baholash.

**Tadqiqot vazifalari:** Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- OPV bilan bog'liq og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining asosiy klinik shakllarini aniqlash;
- shilliq qavatda uchraydigan papilomatoz va verrukoz o'zgarishlarning klinik belgilarini tavsiflash;
- OPV infeksiyasi bilan bog'liq potentsial xavfli holatlarni ajratib ko'rsatish;
- klinik belgilar asosida differensial tashxis qo'yish mezonlarini aniqlash;
- olingan natijalarning stomatologik amaliyotdagi ahamiyatini baholash.

## Materiallar va usullar

Mazkur tadqiqot klinik-kuzatuv va tahliliy usullar asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida og'iz bo'shlig'i shilliq qavati holatini baholashda standart stomatologik klinik tekshiruv usullari qo'llanildi.

Klinik tekshiruv: Bemorlar og'iz bo'shlig'i ko'rigi yaxshi yoritilgan sharoitda, steril stomatologik asboblardan yordamida o'tkazildi. Ko'rik davomida quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratildi:

- shilliq qavatning rangi va namligi;
- epiteliy yuzasida o'sma yoki o'zgarishlarning mavjudligi;
- shikastlanishlarning shakli, chegarasi va yuzasi;
- og'riq, achishish, qonash kabi subyektiv belgilar.

Palpatsiya usuli: Shilliq qavat va ostki to'qimalarning holatini aniqlash maqsadida palpatsiya o'tkazildi. Palpatsiya orqali o'smaning konsistensiyasi, og'riqliligi va harakatchanligi baholandi.

Klinik hujjatlarni tahlil qilish: Bemorlarning tibbiy hujjatlari asosida OPV infeksiyasining mavjudligi, kasallik davomiyligi va umumiy somatik holat bilan og'iz bo'shlig'i o'zgarishlari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi.

Tahlil usuli: Olingan klinik ma'lumotlar umumlashtirilib, og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining asosiy klinik shakllari ajratib ko'rsatildi va tavsiflandi.

Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining klinik ko'rinishlari: Odam papillomavirusi infeksiyasida og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklari turli klinik shakllarda namoyon bo'ladi. Ularning aksariyati uzoq vaqt davomida og'riqsiz kechib, tasodifan stomatologik ko'rik vaqtida aniqlanadi.

Papiloma: Og'iz bo'shlig'i papilomasi OPV bilan bog'liq eng ko'p uchraydigan klinik shakllardan biri hisoblanadi. Papilomalar odatda:

- yumshoq konsistensiyali;
- silliq yoki g'adir-budir yuzali;

- och pushti yoki oq rangda bo'ladi.

Ular ko'pincha til, yumshoq tanglay, lab ichki yuzasi va yonoq shilliq qavatida joylashadi.

Verrukoz o'zgarishlar: Verrukoz shakldagi shikastlanishlar zichroq tuzilishga ega bo'lib, yuzasi qo'pol va g'adir-budir ko'rinishda bo'ladi. Ushbu o'zgarishlar ko'pincha uzoq muddat saqlanib, epitelial qalinlashuvi bilan kechadi.

Kondiloma: Og'iz bo'shlig'idagi kondilomalar bir necha o'smalarning qo'shilishi natijasida paydo bo'lib, gulkaramga o'xshash ko'rinishga ega bo'ladi. Ular yuqori yuqumli bo'lib, OPV infeksiyasining faol bosqichida ko'proq kuzatiladi.

Leykoplakiya: OPV bilan bog'liq leykoplakiya shilliq qavat yuzasida oq rangli, qalinlashgan dog'lar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ushbu holat potentsial xavfli hisoblanib, uzoq davom etganda epitelial displaziya rivojlanishi mumkin.

Epitelial displaziya: Ayrim hollarda OPV infeksiyasi fonida epitelial displaziya belgilari aniqlanadi. Bu holat og'iz bo'shlig'i saratoni rivojlanishining boshlang'ich bosqichi sifatida qaraladi va alohida nazoratni talab etadi.

### Natija va tahlillar

Tadqiqot jarayonida odam papillomavirusi infeksiyasi aniqlangan bemorlarda og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining turli klinik shakllari qayd etildi. Olingan natijalar klinik ko'rinishlarning tarqalish chastotasini baholash imkonini berdi.

Klinik shakllarning uchrash chastotasi: Quyidagi jadvalda OPV infeksiyasiga chalingan bemorlarda og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining asosiy klinik shakllari va ularning uchrash foizi keltirilgan

1-jadval

**OPV infeksiyasida og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining klinik shakllari**

Klinik shakl	Bemorlar soni	Foiz (%)
Papiloma	28	40,0
Verrukoz o'zgarishlar	16	22,9
Kondiloma	10	14,3
Leykoplakiya	9	12,9
Epitelial displaza	7	10,0

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, eng ko'p uchragan klinik shakl papiloma bo'lib, barcha holatlarning 40,0 % ini tashkil etdi. Verrukoz o'zgarishlar 22,9 % hollarda aniqlangan bo'lsa, epitelial displaziya nisbatan kam – 10,0 % holatda kuzatildi.

Klinik belgilar tahlili: Bemorlarning 62,8 % ida og'iz bo'shlig'ida og'riqsiz o'sma yoki qalinlashgan epitelial aniqlangan. 25,7 % bemorlarda achishish va noqulaylik hissi mavjud bo'lgan, 11,5 % hollarda esa ovqatlanish vaqtida og'riq qayd etilgan.

**Muhokama.** Olingan natijalar odam papillomavirusi infeksiyasi og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining rivojlanishida muhim etiologik omil ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlangan klinik shakllar adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan mos keladi.

Papilomatoz o'sishlarning yuqori foizda uchrashi OPV ning epitelial hujayralariga tropizmi bilan izohlanadi. Verrukoz o'zgarishlar va kondilomalar ko'proq infeksiyaning uzoq davom etuvchi shakllarida aniqlanib, epitelial proliferatsiya jarayonlari bilan bog'liq ekanligi qayd etildi.

Alohida e'tibor talab qiladigan holatlardan biri epitelial displaziya bo'lib, bu o'zgarishlar og'iz bo'shlig'i shilliq qavati saratoni rivojlanishining xavf omili hisoblanadi. Shu sababli OPV infeksiyasiga chalingan bemorlarni muntazam stomatologik nazoratdan o'tkazish muhim hisoblanadi.

### Xulosa

O'tkazilgan klinik tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Odam papillomavirusi infeksiyasi og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining rivojlanishida muhim etiologik omillardan biri hisoblanadi.
2. OPV bilan kasallangan bemorlarda eng ko'p uchraydigan klinik shakl papiloma bo'lib, u barcha holatlarning 40,0 % ini tashkil etdi.

3. Verrukoz o'zgarishlar va kondilomalar 37,2 % hollarda aniqlanib, kasallikning uzoq davom etuvchi shakllari bilan bog'liq ekanligi kuzatildi.

4. Epitelial displaziya 10,0 % bemorlarda qayd etilib, bu holat og'iz bo'shlig'i shilliq qavati onkologik kasalliklarining rivojlanish xavfini oshiradi.

5. OPV infeksiyasida og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarini erta aniqlash va klinik baholash stomatologik amaliyotda muhim ahamiyatga ega.

#### **Amaliy tavsiyalar**

OPV infeksiyasiga chalingan bemorlar stomatolog tomonidan muntazam klinik ko'rikdan o'tkazilishi lozim.

- Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida aniqlangan har qanday papilomatoz va verrukoz o'zgarishlar dinamik kuzatuvga olinishi kerak.

- Leykoplakiya va epitelial displaziya aniqlangan hollarda bemorlar onkologik hushyorlik asosida qo'shimcha tekshiruvlarga yo'naltirilishi zarur.

- Stomatologlar OPV infeksiyasining klinik belgilari bo'yicha bemorlarga tushuntirish ishlari olib borishi tavsiya etiladi.

- Profilaktik choralar sifatida og'iz bo'shlig'i gigiyenasiga rioya qilish va zararli odatlarni cheklash muhim hisoblanadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Neville BW, Damm DD, Allen CM, Chi AC. Oral and Maxillofacial Pathology. 4th ed. St. Louis: Elsevier; 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Og'iz bo'shlig'i kasalliklari bo'yicha klinik tavsiyalar. Toshkent; 2021.
3. Regezi JA, Sciubba JJ, Jordan RCK. Oral Pathology: Clinical Pathologic Correlations. 7th ed. St. Louis: Elsevier; 2017.
4. Syrjänen S. Human papillomavirus infections and oral tumors. Med Microbiol Immunol. 2003;192(3):123–128. doi:10.1007/s00430-002-0173-7.
5. World Health Organization. Classification of Head and Neck Tumours. 5th ed. Lyon: International Agency for Research on Cancer (IARC); 2020.

**Qabul qilingan sana 20.04.2026**